



**Received:** November 10, 2025  
**Accepted:** December 24, 2025  
**Available online:** December 25, 2025

## **Xilola Otaxonova**

Katta o'qituvchi  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### **LINGVOMADANIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI MEDIAMATNLAR BILAN ISHLASHGA O'RGATISHNING DIDAKTIK MODEL**

#### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada lingvomadaniy yondashuv asosida talabalarni mediamatnlar bilan ishlashga o'rgatishning didaktik modeli ishlab chiqilib, uning nazariy-metodologik asoslari va oliy ta'lim tizimidagi amaliy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi chet tili ta'limida talabalarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasi va media savodxonligini o'zaro integratsiyada rivojlantirishga xizmat qiluvchi konseptual-didaktik modelni asoslashdan iborat. Mazkur maqsadga muvofiq ravishda autentik mediamatnlar bilan ishlash jarayonini lingvistik, madaniy va media o'lchovlarida tashkil etish, madaniy konnotatsiyalar va pozitsion ovozlarni aniqlash, shuningdek, talabalarning multimodal ijodiy faoliyatini yo'lga qo'yishga qaratilgan vazifalar belgilandi.

Tadqiqotda lingvomadaniy, kommunikativ-faol va konstruktivistik yondashuvlar, tanqidiy media savodxonlik konsepsiyasi, diskurs va multimodal tahlil usullari hamda pedagogik modellash tirish metodi qo'llanildi. Ushbu metodologik asoslar negizida didaktik modelning maqsadli, nazariy-metodologik, mazmuniy, jarayon-faoliyat, resurs muhiti va baholash bloklaridan iborat bo'lgan yaxlit tizimi ishlab chiqildi. Modelda mediamatnlar o'quv jarayonining markaziy didaktik birligi sifatida talqin qilinib, til, madaniyat va media komponentlarining uzviy bog'liqligi ta'kidlandi.

Tadqiqot natijalari lingvomadaniy yondashuv asosida mediamatnlar bilan ishlashni tizimli tashkil etish imkonini beruvchi bir qator

## **Khilola Otakhonova**

Senior Teacher  
Uzbekistan State World Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: hilolaatahanova23@gmail.com  
ORCID iD: 0009-0003-9656-8855

### **A DIDACTIC MODEL FOR TEACHING STUDENTS TO WORK WITH MEDIA TEXTS BASED ON A LINGUOCULTURAL APPROACH**

#### **ABSTRACT**

This article proposes a didactic model for teaching students to work with media texts based on a linguocultural approach in foreign language education. The main aim of the study is to justify a conceptual model that integrates the development of intercultural communicative competence and media literacy among university students. In this context, the study emphasizes the use of authentic media texts and students' engagement in linguistically and culturally informed communicative activities.

Methodologically, the research is grounded in linguocultural, communicative-activity, and constructivist approaches, together with the principles of critical media literacy. Discourse analysis, multimodal analysis, and pedagogical modeling are employed to structure the proposed model. As a result, a coherent didactic system consisting of goal-oriented, theoretical-methodological, content-based, process-oriented, resource-based, and assessment components is developed. Within this framework, media texts are treated as complex communicative phenomena shaped by the interaction of language, culture, and media design.

Moreover, the results demonstrate that the linguocultural approach enables a systematic organization of students' work with media texts and creates methodological conditions for developing critical and intercultural awareness. Students are guided to identify cultural connotations, evaluative language, stereotypes, and implicit authorial positions, as well as to assess the credibility and

metodik xulosalarni aniqlashga imkon berdi. Xususan, talabalar mediamatnlarni faqat axborot manbai sifatida emas, balki madaniy ma'no, ijtimoiy pozitsiya va media dizayn uyg'unligida shakllangan murakkab kommunikativ hodisa sifatida tahlil qilishga yo'naltirilishi zarurligi asoslandi. Shuningdek, taklif etilgan didaktik model talabalarda madaniy konnotatsiyalarni ajratish, stereotip va baholovchi til birliklarini tanqidiy idrok etish, axborot manbalarini solishtirish va verifikatsiya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ko'rsatib berildi. Natijada talabalarning annotatsiya, sharh, infografika, qisqa video yoki podkast kabi multimodal mahsulotlar yaratish orqali o'z fikrini auditoriyaga mos tarzda ifodalash kompetensiyalari shakllanishi uchun metodik shart-sharoitlar belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, lingvomadaniy yondashuv asosida ishlab chiqilgan mazkur didaktik model chet tili ta'limida mediamatnlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, ta'lim jarayonini zamonaviy axborot muhiti talablariga moslashtiradi hamda talabalarni tanqidiy fikrlovchi, madaniyatlararo sezgir va media makonda ongli muloqot olib borishga qodir shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** lingvomadaniy yondashuv, mediamatnlar, media savodxonlik, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, chet til ta'limi, didaktik model, multimodal tahlil, tanqidiy media savodxonlik, pedagogik modellashtrish, diskurs tahlili.

## KIRISH

O'zbekistonda chet tillarni o'rganishni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. 2012-yil 10-dekabrda Prezident qarori (PQ-1875) ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'qitish, o'qituvchilar malakasini oshirish va zamonaviy o'quv-uslubiy resurslar bilan ta'minlashni tizimli yo'lga qo'ydi. Ushbu hujjat xorijiy tilni amaliy kommunikativ kompetensiya sifatida egallashni, axborot texnologiyalarini dars jarayoniga keng tatbiq etishni belgilab berdi.

Keyingi yillarda strategik yo'nalishlar ham chet tillarini ommalashtirish, raqamli resurslar va o'qitishning innovatsion usullarini kengaytirishga urg'u berdi. Masalan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy AKTni joriy etish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatiladi.

Ushbu kontekstda chet tilini nafaqat til tizimi, balki madaniy mazmun va real axborot oqimida qo'llash sifatida o'rgatish dolzarb. Mediamatnlar (yangilik, blog posti, podkast, videoreportaj, infografika va h.k.) bunday uzviylikni ta'minlaydigan

relevance of information sources. Furthermore, the model supports the transformation of analyzed media content into multimodal outputs such as annotations, commentaries, infographics, short video responses, or podcast segments adapted to specific communicative purposes and target audiences.

Consequently, aligning assessment criteria with competence-based learning outcomes enhances students' awareness of communicative effectiveness, intercultural sensitivity, and ethical media use.

In conclusion, the proposed didactic model expands the pedagogical potential of media texts in foreign language education and contributes to the formation of critically thinking, culturally aware, and media-literate communicators capable of effective participation in contemporary intercultural communication.

**Key words:** linguocultural approach, media texts, media literacy, intercultural communicative competence, foreign language education, didactic model, multimodal analysis, critical media literacy, pedagogical modeling, discourse analysis.

tabiiy muhit bo'lib xizmat qiladi.

Lingvomadaniy yondashuv asosida talabalarni mediamatnlar bilan ishlashga o'rgatish jarayoni ta'lim mazmunida til va madaniyatning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi hamda bu jarayonni samarali tashkil etish uchun maxsus didaktik modelni ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Didaktik model - bu maqsad, mazmun, jarayon, vosita va natijalar o'rtasidagi aloqalarni soddalashtirib, tizimli ko'rinishda ifodalovchi konseptual-amaliy tuzilma. U tadqiqotchi va o'qituvchiga jarayonni rejalash, boshqarish va baholashda "yo'l xaritasi" bo'lib xizmat qiladi.

Modellashtirish - real ta'lim jarayonini nazariy-amaliy "nusxa" (model)da qurish, uning ishlash mexanizmlarini sinovdan o'tkazish va keyin amaliyotga tatbiq etish jarayonidir. Pedagogika metodologiyasida modellar jarayonni tizimlashtirish, muammoli bo'g'inlarni ko'rsatish va intervensiyalarni sinab ko'rish imkonini beradi (ta'lim modellarini yaratish bo'yicha klassik yondashuvlar, masalan, Joyce & Weil tomonidan ishlab chiqilgan "Teaching Models" an'anasi bunga misol bo'ladi).

Lingvomadaniy ta'limda esa model madaniyatlararo kompetensiyani (M.Byram), til va madaniyat o'zaro bog'liqligini (C.Kramsch), hamda til+madaniyat birliklarini (Ye.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarov) maqsad-natija sifatida uyg'unlashtiradi; mediamadaniyat va media savodxonlik esa (D.Buckingham) mazmun va faoliyatning amaliy "maydoni"ni beradi.

Lingvomadaniy yondashuv mediamatnni oddiy "matn" emas, balki til birliklari, madaniy ma'nolar va media dizaynining o'zaro ta'siridan hosil bo'lgan murakkab hodisa sifatida ko'radi. Til qatlamida J. Swales va M.A.K.Halliday ishlari esga tushadi: mediamatn har doim maqsadli janr me'yorlari va kommunikativ vazifa bilan belgilanadi, til birliklari esa aynan shu vazifaga xizmat qiladi. Diskurs markerlari (masalan, qarama-qarshilik yoki xulosa bildiruvchi vositalar) auditoriya bilan "muzokara"ni boshqaradi; K.Hyland va D.Biber buni ilmiy va ommaviy nutqda puxta ko'rsatgan. Rus an'anasi bu manzaraga shaxs va ovoz masalasini qo'shadi: M.M.Baxtin polifoniya orqali mediamatnda turli nuqtai nazarlarning to'qnashishini tushuntiradi, Y.N.Karaulov esa "til shaxsi" g'oyasi bilan muallifning leksik-tanlovlari uning bilim va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Meningcha, tilni bu tarzda ko'rish talabaga grammatikani yodlashdan ko'ra, dalilni qanday qurish va pozitsiyani qanday bildirishni o'rgatadi.

Madaniyat qatlami shu til qurilmasiga chuqurlik beradi. C.Kramsch til orqali identifikatsiya shakllanishini ta'kidlaydi: metaforalar, alluziyalar, intertekstlar matnning "ko'rinmas" qatlamida ishlaydi. M.Byramning madaniyatlararo kompetensiya modeli esa bilim, ko'nikma, munosabat va talqin unsurlarini bir tizimda uyg'unlashtiradi; talaba nafaqat gapirishni, balki boshqa madaniyat nuqtai nazaridan anglashni ham o'rganadi. Rus lingvokulturologiyasida E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov realiyalar va precedent matnlar orqali milliy-madaniy semantikani ochadi; Yu.Lotmanning semiosfera g'oyasi esa mediamadaniyatni belgi tizimlari o'rtasidagi uzluksiz almashinuv sifatida tasvirlaydi. Shaxsiy kuzatishim: talaba sarlavhadagi bitta metafora yoki kadrda bitta ramzni "o'qiy" olganida, u matnning

yashirin pozitsiyasini ham ko'ra boshlaydi — bu tanqidiy savodning boshlanishi.

Media xususiyatlari esa barcha ma'nolarni "tashuvchi platforma"dir. G.Kress va T.van Leeuwen ko'rsatganidek, mediamatn ma'nosi matn, tasvir, audio va grafik elementlarining multimodal kompozitsiyasida rivojlanadi; demak, shrift, rang, kadr burchagi ham til kabi semantik tanlovdir. Raqamli muhitda H.Jenkinsning konvergentsiya va ishtirokchilik haqidagi g'oyalari, L.Manovichning yangi media "kodi" haqidagi qarashlari dolzarb: platforma algoritmi va auditoriya odatlari mazmunni qayta shakllantiradi. Shu bilan birga, D.Buckinghamning media savodxonlik talablari, shuningdek N.Fairclough va T.van Dijkning kritik diskurs tahlili ommaviy axborotdagi framing, ideologik pozitsiya va kuch munosabatlarini ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Fikrimizcha, talaba har bir xabarni "matn" emas, dizayn+pozitsiya+maqsad majmuasi sifatida ko'ra boshlasa, u nafaqat talaba, balki mas'ul ijodkor darajasiga ko'tariladi.

Umuman olganda, lingvomadaniy yondashuv mediamatnni "til, madaniyat, media" uchligi sifatida o'qitadi: til birliklari dalilni quradi, madaniy qatlam mazmunni chuqurlashtiradi, media dizayni esa ma'noni joylashtirib, auditoriyaga yetkazadi. Shunday integratsiyada talaba "tilni biladigan" emas, balki madaniy konnotatsiyalarni anglaydigan va media muhiti talablariga mos tanqidiy fikrlaydigan kommunikator sifatida rivojlanadi.

### **TADQIQOT METODLARI**

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan lingvomadaniy va kommunikativ-faol yondashuvlarga tayangan holda olib borildi. Tadqiqotda chet tili ta'limida mediamatnlarni o'rganish jarayoni til, madaniyat va media komponentlarining uzviy bog'liqligida ko'rib chiqildi. Lingvomadaniy yondashuv mediamatnni faqat lingvistik birliklar majmui sifatida emas, balki madaniy ma'nolar, ijtimoiy qadriyatlar va kommunikativ pozitsiyalarni aks ettiruvchi murakkab diskursiv hodisa sifatida talqin qilish imkonini berdi. Ushbu yondashuv tadqiqotning umumiy konseptual asosini belgilab, didaktik modelni ishlab chiqishda tayanch metodologik tamoyil vazifasini bajardi.

Tadqiqot jarayonida tahliliy-tavsifiy metoddan keng foydalanildi. Ushbu metod orqali lingvokulturologiya, media savodxonlik va chet tillarni o'qitish metodikasiga oid ilmiy manbalar tizimli tahlil qilindi hamda ularning mazkur tadqiqot mavzusi bilan bog'liq jihatlari umumlashtirildi. Shuningdek, mediamatnlarning janr xususiyatlari, til birliklari, madaniy konnotatsiyalari va multimodal elementlari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tavsiflandi. Bu esa mediamatnlar bilan ishlashda qo'llaniladigan didaktik yondashuvlarni asoslash imkonini berdi.

Tadqiqotda diskurs tahlili va multimodal tahlil metodlari ham qo'llanildi. Diskurs tahlili yordamida mediamatnlardagi muallif pozitsiyasi, baholovchi til birliklari, stereotiplar va implicit ma'nolar aniqlandi. Multimodal tahlil esa matn, tasvir, audio va grafik elementlarning o'zaro semantik munosabatini aniqlashga xizmat qildi. Ushbu metodlar mediamatnni yaxlit kommunikativ hodisa sifatida tahlil qilish hamda talabalar faoliyatini shu asosda tashkil etish zaruratini metodik jihatdan asoslab berdi.

Shuningdek, pedagogik modellashirish metodi tadqiqotning yetakchi usullaridan biri sifatida qo'llanildi. Ushbu metod asosida lingvomadaniy yondashuvga tayangan holda talabalarni mediamatnlar bilan ishlashga o'rgatishning didaktik modeli ishlab chiqildi. Modellashirish jarayonida ta'lim maqsadlari, mazmuni, jarayon-faoliyat bosqichlari, resurs muhiti va baholash mezonlari o'zaro bog'liq holda tizimlashtirildi. Natijada taklif etilgan model nazariy jihatdan asoslangan va chet tili ta'limi amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan metodik tuzilma sifatida shakllantirildi.

## **NATIJALAR VA MUNOZARA**

Taklif etilayotgan lingvomadaniy yondashuv asosidagi talabalarni mediamatnlar bilan ishlashga o'rgatish didaktik modeli (2.2-rasm) o'zaro uzviy bog'langan bir nechta tarkibiy bloklardan tashkil topgan bo'lib, ular modelning mazmuniy, jarayonli va natijaviy yaxlitligini ta'minlaydi. Ushbu bloklarga maqsadli, nazariy-metodologik, mazmunli, jarayonli, resurs muhiti va baholash bloklari kiradi.

Demak, maqsadli natija bloki umumiy konsepsiyani birlashtirib, keyingi bo'limlarda tavsiflanadigan tamoyillar, mazmun va jarayonlar qanday yagona tizimga ulanayotganini ko'rsatadi; yakunda shakllanadigan kompetensiyalar modelning mantiqiy "markazi" sifatida belgilab olinadi. Talabani chet tilini real axborot muhitida qo'llashini, ya'ni madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya va media savodxonlikni bir tizimda rivojlantirishdir. Bunga erishishda talaba autentik mediamatnlarni (yangilik, maqola, podkast, reportaj, ijtimoiy tarmoq posti) til-mazmun-madaniyat-media ko'zoynaklari orqali tahlil qiladi, undagi metafora, alluziya, qadriyat va pozitsion ovozlarni ajratib ko'ra oladi, manba va dalil sifati bo'yicha xulosaga keladi. Yakunda u o'qiganini ijodiy formatda multimodal mahsulotga aylantiradi: ixcham annotatsiya yoki sharh yozadi, infografika tayyorlaydi, qisqa video yoki podkast bo'lagi yaratadi va bularni maqsadli auditoriyaga mos ohangda taqdim etadi. Kutiladigan natijalar amaliy: talaba (1) mavzuga doir termin va diskurs markerlaridan vazifaga mos foydalanadi, (2) madaniy konnotatsiyalarni tushuntirib beradi va stereotiplarni tanqidiy tahlil qiladi, (3) manbani verifikatsiya qiladi, (4) vizual-eshtiladigan elementlarni matn bilan uyg'unlashtirgan holda aniq, lo'nda va etika talablariga mos kontent ishlab chiqadi. Baholash mezonlari shu natijalarga bog'lanadi: tahlilning aniqligi va dalilliligi, intermadaniy sezgirlik, tilning ravonligi va uslubiy mosligi, hamda multimodal dizaynning funksionalligi; muvaffaqiyat ko'rsatkichlari sifatida esa kamida bitta tahliliy topshiriqni  $\geq 70\%$  ball bilan bajarish, kamida ikki turdagi ijodiy chiqishni auditoriya mezonlariga mos yakunlash va har bir ishda manbalarni to'g'ri ko'rsatish talabi qo'yiladi.

Nazariy-metodologik blok. Lingvomadaniy yondashuvning markazi — til-madaniyat-shaxs uzviyligidir: til birligi faqat grammatik shakl emas, balki muallif va auditoriyaning qadriyatlari hamda tajribasi bilan bog'langan mazmuniy hodisa. Shu bois dars materiali autentik bo'lishi (haqiqiy yangilik, podkast, video), tahlil esa intertekstual va kontekstual yondashuvda olib borilishi lozim: sarlavhadagi metafora, matndagi alluziya va vizual ramzlar boshqa matnlar, tarixiy voqealar, ijtimoiy muhit bilan bog'lanib talqin qilinadi.

Madaniyatlararo kompetensiya (M.Byram) bu yondashuvning maqsad mezonlarini aniq qiladi:

- bilim (savoirs): mavzuga doir realiyalar, ijtimoiy me'yorlar, janrlar va platforma odatlaridan xabardorlik;
- ko'nikma (savoir-faire): turli manbalar bilan taqqoslash, dalilni tekshirish, pozitsiyalarni qiyoslash, mos nutq strategiyasini tanlash;
- munosabat (savoir-être): o'zgaga ochiqlik, stereotipni tan olish va qayta ko'rib chiqish, etik sezgirlik;
- talqin va o'zaro tushunish: xabarning “kim gapiryapti?”, “qaysi manfaati bor?”;

“qaysi qadriyatlar yashirin?” kabi savollar orqali muloqotga tayyor talqinini ishlab chiqish.

Media savodxonlik (Buckingham) bu kompetensiyani media muhitiga “joylaydi”:

Mazmun qanday tuziladi (fakt–fikir–baholash nisbatlari)?

Maqsadli auditoriya kim va til/disayn qanday moslashtirilgan?

Til (semiotika) — matn, rasm, audio, grafika qanday ma'no hamkorligiga kirgan?

Institutsional va kuch munosabatlari — egasi kim, kimdan iqtibos keltirilgan, framing va klikbait chegarasi qayerda?

Ushbu bo'limda tanlangan to'rtta strategiya — vazifaga yo'naltirilgan yondashuv (TBL), tanqidiy o'qish, diskurs tahlili va 4C/CLIL — mediamatnni lingvomadaniy ko'zoynakda o'rganish uchun yagona tizim sifatida qaraladi. TBL real kommunikativ vazifa orqali tilni amalda qo'llashni yo'lga qo'yadi; tanqidiy o'qish esa xabar ortidagi framing, stereotip va manfaatlarni ochadi; diskurs tahlili matnning janr me'yorlari, ovozlarni tizimi va kuch munosabatlarini ko'rsatadi; 4C/CLIL esa mazmun, til, tafakkur hamda madaniyatni bir vaqtning o'zida ishga solib, o'quv faoliyatini interdisiplinar darajaga ko'taradi. Bu strategiyalar o'zaro integratsiyada ishlaganda talaba tilni shunchaki biladigan emas, balki dalilni tekshiradigan, pozitsiyani asoslaydigan va ma'noni multimodal dizaynda ifodalaydigan nutq egasiga aylanadi.

TBL'da til — maqsad emas, real kommunikativ vazifani bajarish vositasi. Talaba autentik mediamatn bilan ishlayotib, “fakt-chek sharhi tayyorlash”, “1 daqiqalik video-izoh yozish”, “podkast bo'lagi uchun skript” kabi ishlarni bajaradi. O'qituvchi til shakllarini vazifa ichida ko'rsatadi: modalitet, diskurs markerlari, baho ifodalari vazifaga xizmat qiladi.

TBL quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Pre-task: mavzu va vazifaning konteksti ochiladi, kichik “trigger” (sarlavha, rasm, xulosa) ko'riladi, vazifaning mezonlari tushuntiriladi, til ko'makchilari (so'z birikmalari, markerlar) beriladi.

Task cycle: guruh yoki yakka tarzda vazifa bajariladi: matn tanlanadi, asosiy g'oyalar ajratiladi, dalillar verifikatsiya qilinadi, so'ng mahsulot (annotatsiya, sharh, video/podkast) yaratiladi. O'qituvchi jarayonda fasilitator bo'lib, savol setkasi, tekshiruv chek-listlari bilan yordam beradi.



Post-task: yakuniy namoyish va mulohaza: nima ishladi/nima yetishmadi, qaysi til shakli eng foydali bo'ldi, qaysi dizayn qarori ma'noni kuchaytirdi. Shu bosqichda maqsadli til fokuslari (masalan, hedging, reporting verbs, kontrast markerlari) yana bir bor qisqa mashq sifatida mustahkamlanadi.

TBL komponentlari autentik material (matn, audio/video), vazifa brifli va mezonlari, til ko'makchilari (frazologiya, qoliplar), tekshiruv chek-listlari (manba, etika, auditoriya), rubrika, yakuniy mahsulotni joylashtirish muhiti (auditoriya, LMS, ijtimoiy platforma imitatori).

Tanqidiy o'qish metodining maqsad matn ustidagi "ko'rinmas" mexanizmlarni ochish: framing, stereotiplar, muallif pozitsiyasi, auditoriya uchun moslashtirish. Talaba fakt va fikrni ajratadi, dalillar zanjirini tekshiradi, muqobil pozitsiyalarni qiyoslaydi. Masalan: Faol old-o'qish (preview): sarlavha, lead, rasm va taglavhalardan taxmin va savollar hosil qilish. Savolga yo'naltirilgan o'qish: "Kim gapiryapti?", "Kim foyda ko'radi?", "Qaysi manba tilga olingan?", "Qaysi ma'lumot tashlab ketilgan?" kabi savollar bilan qatlam-qatlam o'qish. Dalil tekshiruvi: iqtiboslar, statistikalar, vizuallar manbasi va kontekstini qiyoslash, "fact-check triangle" (asl manba — mustaqil manba — ekspert izohi) orqali tasdiqlash. Triangulyatsiya: bir mavzuni uch xil manbada ko'rish; farqlarni xaritalash. Refleksiya: talabaning o'z pozitsiyasi, til va dizaynning qaroriga ta'siri, etik jihatlar.

Tanqidiy fikrlash komponentlari savol setkalari, dalil-verifikatsiya chek-listi, framing/til markerlari ro'yxati, annotatsiya shabloni, muqobil manbalar to'plamini o'z ichiga oladi. Quyida ushbu komponentlarni ishlash jarayoni bayon qilinadi.

Talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish — mediamatnlar bilan ishlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki media kontent ko'pincha subyektiv fikrlar, konnotativ til birliklari va framing (ma'lum g'oyani rivojlantirish) usullaridan foydalanadi.

Chet tilini o'qitish bo'yicha zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ommaviy axborot vositalari matnlaridan foydalanish fakti inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Bundan tashqari, medi matnlar asta-sekin o'quv matnlarini siqib chiqarmoqda va chet tilini o'qitishda asosiy o'quv material sifatida qaralmoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "bugungi kunda ommaviy axborot vositalari matnlari chet tilini o'qitish jarayonining ajralmas qismiga aylangan: ular o'quv jarayonida autentik material sifatida qo'llaniladi, mustaqil o'quv qo'llanmalari shaklida tayyorlanadi, tematik monitoringdan o'tkaziladi, shuningdek, o'rganilayotgan til mamlakati haqidagi dolzarb ma'lumotlarni doimiy ravishda yetkazib beradi".

Bizning fikrimizcha, bunday nutqiy materiallarning ahamiyati nafaqat talabalar chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda, balki ularning madaniyatlararo bilim, ko'nikma va munosabatlarini rivojlantirishda ham nihoyatda muhimdir. Chunki ommaviy axborot vositalari matnlari muayyan til jamoasining mahsuli bo'lib, ular bu jamiyat madaniyatini, ayniqsa, matnning til vositalari orqali va dunyo voqealariga bo'lgan munosabati orqali aks ettiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida chet tili darslarida o'qituvchilar tomonidan mustaqil tanlangan xorijiy OAV matnlaridan foydalanish chet tillarni o'qitish metodikasida

yangi hodisa emas. Yaqin vaqtgacha bu maqsadda asosan xorijiy gazeta va jurnallardagi maqolalardan foydalanilgan bo'lsa, so'nggi yillarda radio va televideniye dasturlari, shuningdek Internet manbalari ham keng qo'llanilmoqda.

Bunday materiallar bilan ishlash o'qituvchiga quyidagi metodik vazifalarni hal qilish imkonini beradi:

talabalarning lug'at boyligini kengaytirish va zamonaviy nutqda eng ko'p ishlatiladigan grammatik konstruksiyalarni mustahkamlash;

o'qish, tinglab tushunish, audiovizual idrok, monologik va dialogik og'zaki nutq, hamda yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish;

dolzarb mavzularda suhbat olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish;

yangi lingvomadaniy ma'lumotlarni o'zlashtirish;

madaniyatlararo xususiyatga ega bo'lgan voqealar haqida yangi ma'lumot olish;

madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.

Chet tilini o'qitish jarayoniga xorijiy medi matnlarni kiritish o'qituvchiga nafaqat aniq metodik maqsadlarni amalga oshirish, balki darsni boyitish, talabalarning qiziqishini oshirish va ularni chet tilini doimiy ravishda o'rganishga undash imkonini beradi.

Shuningdek, ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Yevropa mamlakatlarining zamonaviy til siyosati shundan iboratki, hozirgi jamiyat ta'lim muassasalaridan nafaqat kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishni, balki shaxsning har tomonlama uyg'un rivojlanishini, uning individual qobiliyat va iste'dodlarini ochish asosida kasbiy va ijtimoiy jihatdan yetuk, faol, mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashni talab etmoqda.

Ommaviy axborot vositalari matnlaridan o'quv jarayonida foydalanish nafaqat yuqorida sanab o'tilgan ko'nikmalarni, balki shaxsning quyidagi fazilat va malakalarini ham rivojlantirishga yordam beradi: kommunikativlik, muloqot va hamkorlik qilish qobiliyati, ijtimoiy faol subyekt sifatida ishtirok etish layoqati, mustaqil va tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, axborot bilan samarali ishlash, muammolarni aniqlash va hal etish, o'zgaruvchan hayotiy sharoitlarga moslashish va bu jarayonda ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish, o'zini o'zi rivojlantirish va ta'lim olish, tadqiqot va ijodiy faoliyatga moyillik, mehribonlik va odoblilik, murosaga kelish qobiliyati, hamda muloqotdagi muvaffaqiyatsizlik holatlarida sabr va bosiqlikni saqlay olish.

Mazkur tadqiqot uchun alohida qiziqish uyg'otadigan materiallar sifatida Britaniyaning BBC1 telekanali yangiliklar dasturlari reportajlari tanlangan. Ular til fakultetlarining yuqori bosqich talabalariga mo'ljallangan nutq amaliyoti mashg'ulotlarida o'quv materiali sifatida qo'llanilishi mumkin. Ushbu turdagi OAV matnlarining afzalliklarini chet tili o'qitish jarayonida o'quv materiali sifatida quyidagicha belgilab olish mumkin (T.G. Dobrosklonskayaning tadqiqotiga asoslanib):

Birinchidan, o'rganilayotgan til mamlakatining televideniye yangiliklari dasturlari shu tildagi real hayot voqealarini turli sohalarda aks ettiradi. Bu esa talabalar uchun albatta qiziqish uyg'otadi. Qiziqish esa, o'z navbatida, o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi, bu esa o'quv jarayonida muhim omildir. Shuningdek, mamlakatdagi ijtimoiy voqealarning mazmuniga kirib borish, til egalarining ijtimoiy



shartlangan vaziyatlardagi xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali talabalar milliy xarakter xususiyatlarini yaxshiroq tushunadilar va turli madaniyatlar realiyalarini solishtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, televideniye yangiliklar matni bir vaqtning o'zida uch darajada namoyon bo'ladi: video tasvir, musiqiy hamrohlik va so'z (verbal) matn [39, s.77]. Chet tili o'qitish metodikasida bu narsa isbotlangan haqiqatdirki, tinglab tushunish jarayoni video tasvir bilan uyg'unlashganda ancha samaraliroq bo'ladi. Bundan tashqari, video rolik va ovoz yo'li kombinatsiyasi talabalarda chet til muhitida bo'lish illyuziyasini yaratadi.

Uchinchidan, yangiliklar matnining tuzilishi bir jinsli emas. U diktorning nutqidan tashqari, muxbirlarning xabarlari, diktor va muxbir o'rtasidagi dialog, intervyu beruvchilarning nutqini ham o'z ichiga oladi. Yangiliklar matni, qoida tariqasida, til egasi bo'lgan mutaxassislar jamoasi tomonidan puxta tayyorlanadi va ular tomonidan efirga uzatiladi. Shu sababli, yangiliklar matnlari fonetika, grammatika, leksika va matn darajalarida ham, monologik va dialogik nutq nuqtai nazaridan ham eng yaxshi til namunasi hisoblanadi.

To'rtinchidan, yangiliklar matnlari o'rganilayotgan til mamlakati realiyalarini va madaniyatga xos leksikani o'zida mujassamlashtiradi. Bu realialarni bilish talabalar uchun o'sha mamlakatning tarixiy va madaniy ma'lumotlarini chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi. Madaniy ma'no yuklovchi so'z va iboralar til egalarining ideologiyasi, qadriyatlarini va boshqa xalqlarga munosabatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Televideniye yangiliklari syujetlari uchun axborot tanlovi, uning taqdim etilish rakursi va diktor hamda muxbirlarning sharhlarini tahlil qilish orqali til egalarining siyosiy va mafkuraviy qarashlarini aniqlash mumkin, hatto ular ob'ektivlikka intilgan taqdirda ham.

Beshinchidan, yangiliklar dasturlarining matnlari o'z formati, mazmuni va tili jihatidan barqaror tuzilishga ega. Bunday aniq va izchil tuzilma axborotni idrok etish va tushunishni osonlashtiradi. Yangilik matnlarining tematik bloklarga bo'linishi o'qituvchiga so'z va so'z birikmalarining mavzuli ro'yxatini tuzish, ularni leksik material sifatida qo'llash imkonini beradi. Yangiliklarda ko'plab fe'lli iboralar, passiv shakllar va boshqa grammatik konstruksiyalar takrorlanib turadi, bu esa ularni oson eslab qolish imkonini beruvchi birliklar sifatida ajratishga imkon yaratadi. Bunday material bilan ishlash orqali talabalar zamonaviy leksika va eng ko'p qo'llaniladigan grammatik tuzilmalarni o'z nutqida samarali ishlatishni o'rganadilar.

Mediavideo matnlaridan foydalangan holda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda asosiy nutq faoliyati turi bu tinglab tushunish va audiovizual idrok hisoblanadi. Ammo bu ikki jarayonni aynanlashtirish to'g'ri emas, chunki audiovizual idrok quyidagi jihatlari bilan oddiy tinglab tushunishdan farq qiladi:

Idrok kanallari bo'yicha: tinglab tushunishda axborot faqat eshitish orqali, audiovizual idrokda esa eshitish va ko'rish kanallari orqali qabul qilinadi;

Qo'shimcha kommunikativ elementlarning mavjudligi bo'yicha: audiovizual idrok jarayonida tasviriy, sxematik yoki matnli vizual elementlar ovozli matnga

qo'shilishi mumkin;

Janr xilma-xilligi bo'yicha: audiovizual materiallar turli janrlarda bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, audiovizual idrok — bu bir vaqtning o'zida eshitilayotgan va ko'rilayotgan axborotni qabul qilish va tushunishga qaratilgan retseptiv nutq faoliyati turidir. U televizion materiallarni, jumladan yangiliklar dasturlarini tomosha qilish jarayonida amalga oshadi.

Shunday qilib, ingliz tilidagi video medi matnlar (ya'ni yangilik reportajlari) chet tilini va o'sha til xalqining madaniyatini o'rganishning yakuniy bosqichida talabalar chet til kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyasini uzviy rivojlantirish uchun eng maqbul autentik material bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu taxmin bizning tadqiqotimizning amaliy qismida eksperimental tarzda isbotlanadi.

Televideniyeidagi mediamatnning mazmuni va shakli o'zaro uyg'un holda faoliyat ko'rsatadi. Tasvir (kadr) vizual asosni tashkil etib, hodisani real va ishonarli shaklda aks ettiradi. Tovush qatlami – musiqa, fon shovqinlari va ovoz effektlari – mazmunni hissiy jihatdan kuchaytiradi, auditoriyada kerakli emotsional kayfiyatni shakllantiradi. Nutq matni esa (diktir, boshlovchi yoki intervyu ishtirokchisi nutqi) asosiy axborot yukini tashuvchi til komponenti bo'lib, kontekstni aniqlashtiradi va voqea tafsilotlarini tahliliy tarzda yetkazadi. Grafik elementlar (sarlavha, subtitir, infografika, logotip) ma'lumotni vizual kod orqali mustahkamlaydi, montaj ritmi esa voqealar ketma-ketligini boshqarib, dinamik ta'sir yaratadi.

Mazkur elementlar birgalikda televideniyeidagi mediamatnning multimodal semantik tuzilmasini tashkil etadi. Ular nafaqat voqeani namoyish etadi, balki tomoshabinning diqqatini boshqaradi, emotsional idrokni yo'naltiradi va axborotni esda qolarli qiladi. Shu sababli televideniyeidagi mediamatnlar zamonaviy lingvosemiotika nuqtayi nazaridan belgilar tizimi sifatida tahlil qilinadi, bunda til, vizual kod va akustik elementlar o'zaro aloqada faoliyat yuritadi.

Til o'qitish nuqtayi nazaridan bunday mediamatnlar o'ziga xos didaktik resurs hisoblanadi. Ular talabalarni autentik til muhitiga yaqinlashtiradi, real muloqot vaziyatlari orqali kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi. Televideniyeidagi mediamatnlar bilan ishlash talabani:

real til holatlarini eshitish, talaffuz, intonatsiya va pragmatik ohangni tahlil qilishga;

madaniy kodlarni solishtirish, milliy va global qadriyatlarni farqlashga;

vizual kontekst orqali leksik va grammatik birliklarni eslab qolishga;

motivatsiyani kuchaytirish, o'rganishga faol munosabatni rivojlantirishga o'rgatadi.

Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun televideniyeidagi mediamatnlar zamonaviy til ta'limining muhim komponenti hisoblanadi. Bunday mediamatnlar orqali talabalar nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniyatlararo, kommunikativ va kognitiv kompetensiyalarni ham shakllantiradilar. Televideniyeidagi mediamatnlar o'qitish jarayonida autentiklik, interkultural mazmun, vizual yordamlilik va motivatsion ta'sir

kabi jihatlari bilan ajralib turadi.

**Autentiklik.** Televideniyaedagi mediamatnlar xorijiy til va adabiyot yoʻnalishidagi talabalar uchun tilning tabiiy muhitdagi ishlatilish shakllarini idrok etish imkonini beradi. Ular real hayotdagi suhbatlar, yangiliklar, intervyular yoki reportajlarni eshitish orqali autentik kommunikativ tajriba orttiradilar. O.N.Maxsudova (2021) taʼkidlaganidek, autentik materiallar talabaning muloqotga kirishish kompetensiyasini oshiradi va uni nutqiy vaziyatlarni kontekstual tahlil qilishga oʻrgatadi. N.M.Ahmedova esa bunday mediamatnlarni talaba uchun “real til voqeligi bilan toʻqnashuv maydoni” deb ataydi, chunki ular talabani haqiqiy ingliz tilidagi nutq oqimiga yaqinlashtiradi.

**Interkultural tarkib.** Televideniye materiallarining asosiy pedagogik afzalliklaridan biri ularning madaniyatlararo mazmunidir. Xorijiy til va adabiyot yoʻnalishidagi talaba uchun bunday mediamatnlar boshqa xalqlarning turmush tarzi, qadriyatlari va ijtimoiy muloqot madaniyatini oʻrganish vositasi boʻlib xizmat qiladi. D.X. Saydazimova bu jarayonni “madaniyatlararo anglash mexanizmi” deb atab, televideniye mediamatnlari orqali talabalar turli madaniy kodlarni tahlil qilib, interkultural kompetensiyani rivojlantirishlarini taʼkidlaydi. Sh.A.Atadjanova (2021) esa bunday materiallar talabani madaniy tafakkurga oʻrgatishini va ingliz tilidagi matnlarni madaniyat kontekstida talqin qilish qobiliyatini kuchaytirishini koʻrsatadi.

**Vizual yordamlilik.** Televideniyaedagi mediamatnlarning oʻziga xos jihati shundaki, ularning mazmuni visual tasvir, tovush, nutq va matnning oʻzaro uygʻunligida rivojlanadi. D.Usarova bu jarayonni “koʻrish orqali idrok etish mexanizmi” deb taʼriflab, videoformadagi materiallar til oʻrganishda semantik tushunishni tezlashtiruvchi multimodal resurs ekanini taʼkidlaydi. N.M. Ahmedova esa mediamatnlarni “koʻp sensorli taʼlim vositasi” deb baholaydi, chunki ular orqali talaba bir vaqtning oʻzida eshitish, koʻrish va tahlil qilish faoliyatini amalga oshiradi. Bunday yondashuv xorijiy til va adabiyot yoʻnalishidagi talabalarda ingliz tilining leksik va grammatik birliklarini koʻrgazmali kontekstda mustahkamlash imkonini beradi.

**Motivatsiya.** Televideniyaedagi mediamatnlar talabalarning oʻqishga boʻlgan ichki motivatsiyasini kuchaytiruvchi vosita sifatida alohida ahamiyatga ega. D.X.Saydazimovaning fikricha, oʻquv jarayonida videomateriallardan foydalanish talabalarda emosional faollikni oshiradi va ularni oʻrganishga jalb etadi. Sh.A. Atadjanova bu jarayonni “faol muloqotli oʻrganish muhiti” deb ataydi, chunki bunday mashgʻulotlarda talaba nafaqat eshituvchi, balki fikr bildiruvchi, tahlil qiluvchi va baholovchi subyektga aylanadi. D.Usarova ham motivatsion omil sifatida mediamatnlarning talabani oʻzlashtirishga undovchi hissiy rezonans hosil qilish xususiyatini taʼkidlaydi.

Fikrimizcha, xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yoʻnalishidagi talabalarga televideniyaedagi mediamatnlar asosida taʼlim berish autentik, interkultural, vizual va motivatsion komponentlarning uygʻun sintezini yaratadi. Bunday yondashuv talabalarda nafaqat til koʻnikmalarini, balki madaniy tafakkur, refleksiya va kreativ muloqotni rivojlantiradi. Televideniye mediamatnlarini oʻquv jarayoniga integratsiyalash natijasida talaba ingliz tilidagi matnni faqat tahlil qilmaydi, balki uni

madaniyat, hissiyot va ijtimoiy kontekstda anglay oluvchi mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida rivojlanadi.

Televideniyaedagi mediamatnlar yordamida o'tkaziladigan darslar talabalarda tanqidiy tahlil, muloqotga tayyorlik va multimodal idrok ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi bunday materiallar yordamida nafaqat til o'rgatadi, balki audiovizual tafakkurni shakllantiradi, ya'ni talabani so'z, tasvir va tovush o'rtasidagi bog'liqlikni anglay olishga o'rgatadi.

Talabalar uchun televideniyaedagi mediamatnlar bilan ishlash multimodal tahlil metodlarini amalda qo'llashni talab etadi. Bu jarayonda ular lingvistik, semiotik va madaniy tahlil usullarini uyg'unlashtiradi. Natijada talaba nafaqat mazmunni idrok etadi, balki uni baholash, qayta talqin qilish va o'quv maqsadida moslashtirish malakasini egallaydi.

Demak, televideniyaedagi mediamatnlarni o'qitish jarayoniga kiritish ingliz tili ta'limida ko'pkanali axborotni idrok etish, kognitiv tahlil va interkultural muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular til o'rganishni tabiiy, vizual va hissiy jihatdan boyitilgan muhitda amalga oshirish imkonini beradi, bu esa zamonaviy kommunikativ metodikaning asosiy tamoyillariga to'liq mos keladi.

Zamonaviy G'arb olimlari — G.Kress, C.Jewitt, D.Buckingham, H.Jenkins, T.van Leeuwen, R.Rogers, C.Pereira va S.Pink televideniyaedagi mediamatnni ko'p kodli (multimodal) kommunikatsiya tizimi sifatida talqin etadilar. Ularning tadqiqotlarida mediamatn so'z, tasvir, tovush va harakatlarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali yangi semantik makon hosil qiluvchi ijtimoiy-belgilar tizimi sifatida izohlanadi. G.Kress va C.Jewitt mediamatnni "ma'no yaratishning multimodal makoni" sifatida ko'rib, uning har bir elementi (nutq, rang, tovush) tildan tashqari kodlar bilan birga ishlashini ta'kidlaydilar. D.Buckingham va R.Rogers mediamatnni tanqidiy tafakkur va media-savodxonlikni shakllantiruvchi o'quv resursi sifatida ko'rishadi, J.Jenkins esa televideniyaedagi mediamatnni konvergent madaniyat doirasida talabani passiv tomoshabindan faol ishtirokchiga aylantiruvchi vosita sifatida talqin etadi. C.Pereira va S.Pink esa mediamatnni sensorli o'rganish jarayonining vositasi deb bilib, talaba/talaba unda audiovizual, emotsional va kognitiv idrokni birgalikda rivojlantiradi, deb ta'kidlaydilar.

Ushbu qarashlarga asoslanib, fikrimizcha, G'arb olimlari tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar ingliz tili o'qitish metodikasida televideniyaedagi mediamatnni integrativ o'quv muhit sifatida talqin etish imkonini beradi. Ularning konsepsiyalari til o'rganish jarayonida nafaqat lingvistik, balki kognitiv, hissiy va madaniy o'zaro ta'sirni ham faollashtiradi. Shuningdek, bu yondashuvlar talabalarda tanqidiy fikrlash, o'z fikrini media orqali ifodalash va refleksiv tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun nazariy asos yaratadi.

Rus ilmiy maktabi vakillari T.Dobrosklonskaya, O.Fedorova, E.Baranova, Ye.Varanova, N.D.Galskova, Ye.I.Passov televideniyaedagi mediamatnni lingvistik, madaniy va aksiologik birliklarning sintezi sifatida baholaydilar. T.Dobrosklonskaya va O.Fedorova mediamatnni til tizimining yangi shakli, ya'ni "media diskurs" deb atab, uning strukturasi vizual va lingvistik kodlarning o'zaro ta'siri orqali ijtimoiy

ma'no yaratish jarayonini tahlil qiladilar. E.Baranova va Ye.Varanova fikricha, televideniyaedagi mediamatn tildagi yangi semiotik imkoniyatlarni ochib beradi, unda nutq matni faqat axborot emas, balki madaniy qadriyatlar va stereotiplarni ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Fikrimizcha, MDH olimlarining yondashuvlari mediamatnni pedagogik tizimning kommunikativ yadrosi sifatida talqin etish uchun nazariy asos yaratadi. Ularning qarashlari, ayniqsa, madaniyatlararo muloqot va aksiologik komponentni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Televideniyaedagi mediamatn, muallif nazarida, til o'rganish jarayonida madaniy tafakkur, ijtimoiy ong va emotsional idrokni birlashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli uni o'qitish metodikasiga tatbiq etish talabalarning ko'p qatlamli fikrlash, vizual tahlil va media-savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali metodik yo'nalish sifatida qaraladi.

Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun mediamatnlar, xususan televideniyaedagi audiovizual materiallar, zamonaviy kommunikativ ta'limning muhim vositasiga aylanmoqda. Ular tilni o'rganish jarayonida nafaqat lingvistik, balki kognitiv, madaniyatlararo va emotsional idrokni ham shakllantiradi. Televideniyaedagi mediamatnlar yordamida talaba til birliklarini real muloqot holatlarida kuzatadi, ularni kontekstda tahlil qiladi va mazmunni vizual hamda akustik belgilar orqali chuqurroq anglaydi. Shuningdek, bu jarayon o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirib, til o'rganish faoliyatini faol, ijodiy va refleksiv yo'nalishga o'tkazadi.

Shu nuqtayi nazardan, quyidagi jadvalda televideniyaedagi mediamatnlarning xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo'nalishidagi o'quv jarayonidagi asosiy afzalliklari, ularning pedagogik natijalari hamda talabada rivojlanadigan kompetensiyalar o'zbek olimlari tadqiqotlari asosida umumlashtirilgan.

### **Televideniyaedagi mediamatnlarning talabalar o'quv jarayonidagi afzalliklari**

Afzallik turi	Pedagogik natija	Talabada rivojlanadigan kompetensiya
Autentiklik	Real til muhitini modellashtiradi; ta-laffuz, intonatsiya va pragmatik nutq ko'nikmalarini mustahkamlaydi.	Kommunikativ kompetensiya – tabiiy muloqot sharoitida til birliklarini to'g'ri qo'llash.
Interkultural tarkib	Madaniyatlararo muloqot, tolerantlik va madaniy qadriyatlarni solishtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.	Madaniyatlararo (interkultural) kompe-tensiya – turli madaniy kodlarni tahlil qilish va ularga moslashish.
Vizual yor-damlilik	Ko'rish va eshitish orqali idrokni uyg'unlashtiradi; til birliklarini kontekstda tushinishni osonlashtiradi.	Kognitiv kompetensiya – leksik va grammatik birliklarni vizual kontekstda idrok etish.
Motivatsiya	Talabalarda o'rganishga ichki qiziqish uyg'otadi; dars jarayonida faol ishtirokni ta'minlaydi.	Refleksiv va affektiv kompetensiya – o'z o'rganish jarayoniga faol, emotsional va ongli munosabat bildirish.

Televideniyaedagi mediamatnlar xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo'nalishidagi talabalarni tayyorlash jarayonida autentik, madaniyatlararo, kognitiv va affektiv o'quv faoliyatini uyg'unlashtiruvchi samarali ta'lim vositasidir. Ular orqali talaba nafaqat

til birliklarini o'rganadi, balki ingliz tilidagi nutqni madaniy kontekstda tahlil qilish, vizual va audiovizual axborotni tanqidiy baholash, hamda real kommunikativ holatlarda faol ishtirok etish kompetensiyalarini egallaydi. Shu jihatdan televideniyaedagi mediamatnlarni o'quv jarayoniga integratsiyalash oliy ta'lim tizimida ingliz tili o'qitish metodikasining innovatsion, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy modelini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mediamatnlar bilan ishlash hozirgi ingliz tili o'qitish metodikasida fanlararo integratsiyaning markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Chunki mediamatn — bu faqat lingvistik hodisa emas, balki unda semiotik, sotsiologik, psixologik va pedagogik omillar uzviy tarzda birlashadi.

Shu sababli, talabani tayyorlashda mediamatnlarni o'rganish jarayoni ko'p qatlamli tahlilni talab etadi: lingvistik, madaniy, media va pedagogik jihatlar birgalikda o'rganiladi.

## XULOSA

Mazkur tadqiqot lingvomadaniy yondashuv asosida talabalarni mediamatnlar bilan ishlashga o'rgatish masalasini nazariy va metodik jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqot davomida mediamatnlar chet tili ta'limida nafaqat autentik til material, balki til, madaniyat va media komponentlari uyg'unlashgan murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin qilindi. Shu asosda ishlab chiqilgan didaktik model mediamatnlarni lingvistik, madaniy va multimodal tahlil qilishni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiyalash imkonini beruvchi metodik tuzilma sifatida asoslandi. Tadqiqot natijalari taklif etilgan model talabalarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasi va media savodxonligini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga yo'naltirilganligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, lingvomadaniy yondashuv asosida ishlab chiqilgan mazkur didaktik model chet tili ta'limini zamonaviy axborot muhitiga moslashtirishda muhim metodik ahamiyatga ega. Ushbu model mediamatnlar bilan ishlash jarayonini maqsadli, bosqichma-bosqich va baholash mezonlari bilan uyg'un holda tashkil etish imkonini beradi hamda talabalarni tanqidiy fikrlashga, madaniy konnotatsiyalarni anglashga va media makonda ongli muloqot olib borishga yo'naltiradi. Natijada, model chet tilini o'qitish amaliyotida talabalarning real kommunikativ muhitda faol, mas'uliyatli va madaniyatlararo sezgir shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi samarali metodik yechim sifatida qaraladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bazalgette, C. (1995). *Media education: A kit for teachers, students, parents and professionals*. British Film Institute.
2. Buckingham, D. (2003). *Media education: Literacy, learning and contemporary culture*. Polity Press.
3. Byram, M. (1997). *Teaching and assessing intercultural communicative competence*. Multilingual Matters.
4. Fairclough, N. (1995). *Media discourse*. Edward Arnold.
5. Fairclough, N. (2010). *Critical discourse analysis: The critical study of language* (2nd ed.). Routledge.



6. Fedorov, A. V. (2007). *Mediaobrazovanie i mediakompetentnost' shkol'nikov* [Media education and media competence of school students]. MOO VMK.
7. Gavrilova, N. V. (2018). *Mediatekst lingvistikasi: Nazariya va amaliyot* [Media text linguistics: Theory and practice]. Flinta.
8. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1989). *Language, context, and text: Aspects of language in a social-semiotic perspective* (2nd ed.). Oxford University Press.
9. Hyland, K. (2005). *Metadiscourse: Exploring interaction in writing*. Continuum.
10. Hyland, K. (2019). *Second language writing* (2nd ed.). Cambridge University Press.
11. Jenkins, H. (2006). *Convergence culture: Where old and new media collide*. New York University Press.
12. Jewitt, C. (Ed.). (2009). *The Routledge handbook of multimodal analysis*. Routledge.
13. Jewitt, C., Bezemer, J., & O'Halloran, K. (2016). *Introducing multimodality*. Routledge.
14. Kramsch, C. (1998). *Language and culture*. Oxford University Press.
15. Kramsch, C. (2009). *The multilingual subject*. Oxford University Press.
16. Kress, G. (2010). *Multimodality: A social semiotic approach to contemporary communication*. Routledge.
17. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2001). *Multimodal discourse: The modes and media of contemporary communication*. Arnold.
18. Livingstone, S. (2005). *Audiences and publics: When cultural engagement matters for the public sphere*. Intellect Books.
19. Livingstone, S. (2011). *Media literacy: Ambitions, policies and measures*. European Commission.
20. Manovich, L. (2001). *The language of new media*. MIT Press.
21. Manovich, L. (2013). *Software takes command*. Bloomsbury Academic.
22. Potter, W. J. (2013). *Media literacy* (6th ed.). SAGE Publications.
23. Potter, W. J. (2019). *Media literacy* (8th ed.). SAGE Publications.
24. Qosimova, M., & Abdurahmonov, A. (2020). *Media savodxonlik va axborot madaniyati*. O'qituvchi.
25. Rogers, R. (Ed.). (2011). *An introduction to critical discourse analysis in education* (2nd ed.). Routledge.
26. Swales, J. M. (1990). *Genre analysis: English in academic and research settings*. Cambridge University Press.
27. Swales, J. M. (2004). *Research genres: Explorations and applications*. Cambridge University Press.
28. van Dijk, T. A. (2008). *Discourse and power*. Palgrave Macmillan.
29. van Dijk, T. A. (2015). *Discourse–cognition–society*. Cambridge University Press.
30. Xodjajev, M. (2021). *Raqamli pedagogika asoslari: Nazariya va amaliyot*. Innovatsiya.

## REFERENCES

1. Bazalgette, C. (1995). *Media education: A kit for teachers, students, parents and professionals*. British Film Institute.
2. Buckingham, D. (2003). *Media education: Literacy, learning and contemporary culture*. Polity Press.
3. Byram, M. (1997). *Teaching and assessing intercultural communicative competence*. Multilingual Matters.
4. Fairclough, N. (1995). *Media discourse*. Edward Arnold.
5. Fairclough, N. (2010). *Critical discourse analysis: The critical study of language* (2nd ed.). Routledge.
6. Fedorov, A. V. (2007). *Media education and media competence of school students*. MOO VMK.
7. Gavrilova, N. V. (2018). *Media text linguistics: Theory and practice*. Flinta.
8. Gee, J. P. (2014). *An introduction to discourse analysis: Theory and method* (4th ed.).

- Routledge.
9. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1989). *Language, context, and text: Aspects of language in a social-semiotic perspective* (2nd ed.). Oxford University Press.
  10. Hyland, K. (2005). *Metadiscourse: Exploring interaction in writing*. Continuum.
  11. Jenkins, H. (2006). *Convergence culture: Where old and new media collide*. New York University Press.
  12. Jewitt, C. (Ed.). (2009). *The Routledge handbook of multimodal analysis*. Routledge.
  13. Jewitt, C., Bezemer, J., & O'Halloran, K. (2016). *Introducing multimodality*. Routledge.
  14. Kramsch, C. (1998). *Language and culture*. Oxford University Press.
  15. Kramsch, C. (2009). *The multilingual subject*. Oxford University Press.
  16. Kress, G. (2010). *Multimodality: A social semiotic approach to contemporary communication*. Routledge.
  17. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2001). *Multimodal discourse: The modes and media of contemporary communication*. Arnold.
  18. Livingstone, S. (2005). *Audiences and publics: When cultural engagement matters for the public sphere*. Intellect Books.
  19. Livingstone, S. (2011). *Media literacy: Ambitions, policies and measures*. European Commission.
  20. Manovich, L. (2001). *The language of new media*. MIT Press.
  21. Manovich, L. (2013). *Software takes command*. Bloomsbury Academic.
  22. Potter, W. J. (2013). *Media literacy* (6th ed.). SAGE Publications.
  23. Potter, W. J. (2019). *Media literacy* (8th ed.). SAGE Publications.
  24. Qosimova, M., & Abdurahmonov, A. (2020). *Media literacy and information culture*. O'qituvchi.
  25. Rogers, R. (Ed.). (2011). *An introduction to critical discourse analysis in education* (2nd ed.). Routledge.
  26. Swales, J. M. (1990). *Genre analysis: English in academic and research settings*. Cambridge University Press.
  27. Swales, J. M. (2004). *Research genres: Explorations and applications*. Cambridge University Press.
  28. van Dijk, T. A. (2008). *Discourse and power*. Palgrave Macmillan.
  29. van Dijk, T. A. (2015). *Discourse–cognition–society*. Cambridge University Press.
  30. Xodjayev, M. (2021). *Fundamentals of digital pedagogy: Theory and practice*. Innovatsiya.